

LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQOTLARDA LINGVOKOGNITIV KONSEPTLAR

Yusupova Marjona Ikromjon qizi

FarDU 10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va
kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi doktoranti

ANNOTATSIYA

Bugungi kunga kelib, zamonaviy tilshunoslik sohasida konseptda tafakkurga nima tegishli-yu, tilga nima tegishli degan savol ochiq qolmoqda. Bir tomondan, konseptda umuman lingvistik hech narsa yo‘q degan qarashlar mavjud. Ushbu maqolada konsept va konseptosfera tushunchasi tahlil qilinadi.

***Kalit so‘zlar:** konsept, konseptosfera, semiotika, pragmatika, lingvokulturologiya, antroposentrizm, imagen, logogen*

ABSTRACT

Nowadays, the question of what belongs to thinking and what belongs to language remains open in the field of modern linguistics. On the one hand, there are views that there is nothing linguistic in the concept at all. This article analyzes the concept and conceptosphere.

***Key words:** concept, conceptosphere, semiotics, pragmatics, linguistic culture, anthropocentrism, imagen, logogen*

KIRISH

Jadallashib borayotgan tamaddun hamda unda taraqqiy etayotgan tilshunoslik sohasida lingvokulturologiya ham o‘z oldiga bir qator vazifalarni qo‘yadi. Etnos madaniyati va tili hamda etnos mentaliteti va tili bir-birida qanday aks ettirishini o‘rganish ham ana shunday vazifalar qatoriga kiradi. Ushbu o‘zaro munosabatlar tizimi orqali odamlarning tilida go‘yo ko‘zgudagidek aks etgan xalqning etnik va madaniy o‘ziga xosligini aks etirishi ehtimoldan holi emas [Ruchina 2000]. Insonning nutqiy jarayoni kognitiv munosabat orqali amalga oshiriladi va bu avtomatik tarzda ongda mavjud bo‘lgan madaniy tushunchalarning tilga ko‘chishi Lingvokulturologiyaning obykti sifatida madaniyatning milliy kodlarida taqdim etilgan u yoki bu tarzda milliy tilda obyektivlashtirilgan madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni ko‘rib chiqish odatiy hol ekanligini V.N.Teliya ta’kidlaydi. Yana uning talqiniga ko‘ra, bunday o‘ziga xos birliklar ko‘rinishida “madaniy konseptlar, madaniy semalar, madaniy konnotatsiya va madaniy fon” kabilar muhim ahamiyatga molik [Teliya 1996].

V.I.Karasikning fikricha, “til hayotning eng keng tarqalgan hodisalariga tarkibi sanalgan ajralmas komponent sifatida tushuniladi”:

- muloqotning eng muhim vositasi sifatida til kommunikativ faoliyatning tarkibiy qismi sifatida qaraladi;

- dunyoni o‘zgartirish, axborot ta’minoti va shaxslararo tartibga solishning eng muhim usuli deya sanalib, til ta’sir qilish, odamlarni u yoki bu harakatlarga undash, ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish vositasi sifatida tahlil qilinadi;

- kollektiv tajribaning eng muhim ombori sifatida til madaniyatning ajralmas qismidir” [Karasik 2001: 6].

Zamonaviy lingvokulturologik tadqiqotlar doirasida yangi hodisa g‘oyasi shakllanmoqda, u hali ham terminologik ahamiyatga ega bo‘lmagan holda “madaniyat tili” deb nomlanadi: bu madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarning ko‘p bosqichli va turli xil tashuvchilari to‘plami bo‘lib, ular mohiyat va ekstralingvistik (an‘ana va marosimlar, urf-odatlar va biddiyatlar, tabiiy ramzlar, xalq naqshlari va boshqalar) va til ichidagi (kalit so‘zlar, shu jumladan, ekvivalenti bo‘lmagan leksika, ilg‘or fenomenalar, shu jumladan — frazeologik birliklar va paremiyalar, so‘z yasovchi modellar, grammatik toifalar va sintaktik sxemalar) [Radbil 2016]. Til nuqtai nazaridan “madaniyat tili” har xil turdagi diskurslar (diniy, badiiy, publisistik, reklama, maishiy va boshqalar)da amalga oshiriladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Til inson atrofida sodir bo‘layotgan butun jarayonlarning markaziga aylanmoqda. Til orqali murakkab hodisalarni tushuntirish, anglab yetish va tadqiq qilish bugungi kun tilshunoslarining asosiy vazifalaridan sanaladi. Muloqotning eng asosiy vositasi sanalmish tilning xalq tajribasi orqali yuzaga kelgan tushuncha va urf-odatlarini keying avlodlarga uzluksiz va xatosiz yetkazib berishi hamda uning ma’naviy qadriyatlarini qaytadan tiklab, translyatsiya qilish jarayonlarida ishtirok etish yo‘llari va usullarini o‘rganishga bo‘lgan munosabati tufayli zamonaviy gumanitar bilimlarining tushunilgan lingvistik-madaniy paradigmasi nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Vaholanki, aynan til shaxsning milliy va madaniy o‘ziga xosligi muammosini anglab yetish uchun ishonchli ilmiy vositalarni taqdim etadi.

Madaniy boyliklarni yaratish, saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazib berishning asosiy vositasi dunyoni kontseptsiyalashning milliy shartli usuli hisoblanadi. Etnosning olamni anlashning lingvistik shartliligi g‘oyasi asoslari V. fon Gumboldt tomonidan quyidagicha talqin qilinadi: “Xalqning tili va ma’naviy kuchi bir-biridan alohida va ketma-ket rivojlanmaydi, balki aqliy qobiliyatning uyg‘un va ajralmas harakatini tashkil etadi” [Gumboldt 1984: 68].

Qolaversa, mashhur tezis: “Xalq tili – bu uning ruhi, xalq ruhi – bu uning tili, yana shunchalik muvofiqlikni tasavvur qilish mushkul” mazkur nemis filologi V. fon Gumboldtga tegishli [Gumboldt 1984: 68]. Va aynan shu munosabat orqali zamonaviy lingvokulturologiya vujudga kelgan.

Til va madaniyat uyg'unligi va shu qadar bir-biri bilan chambarchas bog'lanishi boshqa tadqiqotchilarning ham nazaridan chetda qolmadi. Yuqorida keltirilgan fikrlar E.Sepir va B.L.Vorfning “lingvistik nisbiylik nazariyasi”ga o'ziga xos tarzda singib ketgan. Amerikalik olimlar Amerika hind tilini o'rganish jarayonida bir qator xulosalarga kelishdi. Ularning fikricha, ular butun olamni xuddi to'g'ridan-to'g'ri idrok qilayotgandek his qilishadi: “Aslida biz narsalarni ularning tili bizga taqdim etadigan tarzda o'ylaymiz”, deya ta'kidlaydilar. Boshqa tomondan qaraladigan bo'lsa, har bir xalqning tili dunyo haqidagi tasavvurni o'ziga xos tarzda uyg'otadi va bu holatda barcha tildagi kognitsiya bir-biridan ajralib turadi. Madomiki, boshqa tilni bilmkiy turib bu doirani his qilish va anglash mushkul. Yana ularning farazlariga qaraganda, amerikancha hind tilining shakllari nafaqat fikrlash shakllarini, balki xatti-harakatlarni ham belgilaydi. “Aslida gap shundaki, “chinakam dunyo” asosan ijtimoiy guruhning til qobiliyatlari asosida shakllanadi... biz voqelikni boshqacha emas, balki shundayligicha ko'ramiz, eshitamiz va idrok etamiz, chunki jamiyatning til ko'nikmalari haqiqatni talqin qilish imkoniyatini belgilaydi”, degan fikrni Sepir taqdim etadi [Sepir 1993: 231].

B.L.Vorf tushunchalarni shakllantirishda tilning yetakchi rolini tasdiqlaydi. Til bizga haqiqatni idrok etish shaklini avtomatik ravishda yuklaydi. Shunday qilib, biz “yangi nisbiylik tamoyili bilan shug'ullanmoqdamiz, unga ko'ra voqelik kuzatuvchilar tomonidan fizik xususiyatlarga asoslanib, ularning til qobiliyatlari o'xshash yoki bir-biriga mos keladigan taqdirdagina bir xil tarzda qabul qilinadi” [B.Uorf 1960: 64].

Shunday qilib, E.Sepir va B.L.Uorfning asarlarida ham insonning kognitiv yo'naltirilgan faoliyatida tilning ustuvor roli haqidagi fikrlar aniq bayon etilgan. Fikrlash shakllari umuman universal emas, ular qaysidir ma'noda ona tili toifalari tomonidan belgilanadi, ular aslida ba'zi bir namunalar, naqshlar, belgilangan andozalar bo'lib, unda odam sezgi organlari orqali unga keladigan tashqi muhit to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zlashtiradi. Bu masalaga rus tilshunosligida ham e'tibor qaratilgan. Mazkur qoidalar 70-yillarda o'zlashtirildi va tilshunoslik olamida ijodiy qabul qilindi [Ivanov 1978].

Tilshunoslik rivojlangani sari uning tarkibiy qismi bo'lgan kognitiv lingvika qoidalaridan ham foydalanish samarali natijalar bera boshladi. Bu esa, o'z navbatida, mazkur asosiy g'oyalar taraqqiy etib “olamning lisoniy manzarasi” deb atalmish

umumilmiy atamaga aylandi. Tamaddun jarayonida insonning lisoniy olamiga kirib kelgan “konseptualizatsiya” tushunchasi “insonning kognitiv faoliyatidagi eng muhim jarayonlardan biri bo‘lib, ong tomonida resepiet sifatida qabul qilinadigan ma‘lumotlarni anglat yetishda yetakchi o‘rin egallaydi va inson miyasida, ya‘ni psixikasida konsept, konseptual tuzilma hamda butun konseptual tizimning shakllanishiga olib keladi” [KSCT 1996: 93].

Konseptualizatsiya jarayoni haqida Radbil ham o‘z qarashlarini bildirgan va unga ko‘ra “... ushbu jarayon obyekt qanchalik keng bo‘lishidan qat‘iy nazar, ham idrokning turli tomonlariga, ham aynan shu aqliy obyektning o‘ziga yo‘naltirilgan anglashni nazarda tutadigan ommabop tushuncha. Agar bu borada butun koinotni konseptualizatsiya obyekt sifatida qaraydigan bo‘lsak, uning barcha fragmentlari, shu jumladan, insonni ham butun olamning asosiy tarkibiy qismi sifatida shu qatorga qo‘shib, orasidagi o‘zaro munosabatga urg‘u berib, “olamning lisoniy manzarasi” haqida fikr yuritimiz” [Radbil 2016: 129].

Konseptualizatsiyani yana ma‘no shakllanishidagi aqliy faoliyat sifatida qarsh mumkin, uning natijasida esa sezgi organlari orqali tashqaridan ongga ta‘sir etayotgan tashqi ma‘lumotlarga tayanib, olam haqidagi tasavvurda o‘ziga xos “olamning bo‘linishi” sodir bo‘ladi, ya‘ni bunda “aqliy tasvirlar”, “olam haqidagi formatlar”, “yangi bilim kvantlari” kabi idrok obrazlari va shakllari yuzaga keladi.

Kognitiv faoliyatning qay yo‘sinda amalga oshirilishi haqida Mechkovskaya ham o‘z qarashlari bilan o‘rtoqlashgan va unga ko‘ra bu jarayon albatta ramziy shakllar orqali amalga oshiriladi. Kontseptualizatsiyaning har bir turi voqelikning o‘ziga xos ramziy modeli sanaladi. Ana shunday shakllangan ramziy modellar orasida tilning stimulyatsiyasi eng asosiy o‘rinni egallaydi. Agarda ma‘um bir turdagi konseptual tizim voqelikni faqatgina bir sohaga mansubligini aks ettirsa, til dunyodagi barcha sohada sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni konsepsiyalash uchun mo‘ljallangan universal belgi tizimidir. Olamning lisoniy manzarasi dunyoda mavjud bo‘lgan boshqa konseptualizatsiya, ya‘ni manzaralar (ilmiy, diniy, badiiy va boshqalar)dan ustunroq hisoblanib, ularga asos sifatida xizmat qiladi. “Birinchi navbatda, insonning va umuman olgandanda butun etnosning ma‘naviy faoliyatidagi yutuqlari aynan til orqali singdiriladi. Huddiki shu til bizga narsalarga nisbatan ma‘lum qarashlarni “jo qilatotgandek”, aqliy faoliyatning tabiati va yo‘nalishlarini belgilaydigandek tuyiladi” [Radbil 2016: 129].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan tashqari boshqa tadqiqotchilar ham bu borada ma‘lum bir xulosalarga kelishgan. Jumladan, V.A.Maslovaning bildirgan fikriga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, “til madaniy ahamiyatga ega ma‘lumotlarni to‘plash va saqlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ayrim birliklarda zamonaviy til tashuvchisi

uchun ma'lum darajada dunyoviy o'zgarishlarga uchrab yashiringan, faqatgina bilvosita anglash orqali yuzaga chiqishi mumkin. Biroq u mavjud va ong osti darajasida "faoliyat olib boradi" (masalan, QUYOSH so'z-stimuliga tajribadagilar afsona semantikasidagi oy, osmon, ko'z, Xudo, bosh va boshqalarni ham javob tariqasida taqdim etishdi) [Maslova 2001: 11].

Vekbitskaya va Zaliznyak bergan ma'lumotlar omma e'tiboriga havola qilingandan so'ng, voqelikni lisoniy o'zlashtirish jarayonida u yoki bu tilda so'zlashuvchilarning ma'lum g'oyalarni aks ettirishda ona tililari vositalarining ta'siri shakllariga nazar sola boshlangan. "Ushbu farazlar til birliklarining semantikasida o'z aksini topadi, shu bois, tilni va xususan so'zlarning ma'nosini o'zlashtirgan holda, ona tilida so'zlashuvchi bir vaqtning o'zida mazkur g'oyalar bilan uyg'unlashadi va bu holat butun til egalariga xos jihat sanaladi (yoxud kamida tanish bo'ladi), ular ushbu tildan foydalanadigan madaniyatning bir qator xususiyatlarini aniqlaydi" [Zaliznyak va boshq. 2005: 17].

Turli tizimli tillarda boshqa tillararo ma'lum "ma'no konfiguratsiyalari" mavjud bo'lib, ular hatto har bir tilda lug'at yozishmasiga ega bo'lsa ham aynan bir xil shaklda uchramaydi. Til o'rganish jarayoni bolalikdan ongli va avtomatik shaklda amalga oshadi, chunki inson atrofidagi til muhiti unga so'zlashish ko'nikmasi bilan bir qatorda aynan shu til tegishli bo'lgan millatning o'ziga xos jihatlari, shartli fikrlashning ba'zi toifalari va sxemalarini, dunyoga boshqacha emas, balki aynan shu yo'sinda qarashning ayrim odatlarini qabul qiladi. Turli tillarda so'zlashuvchilar dastlab ma'lum "ma'no konfiguratsiyalarini" biror hodisani shu tarzda konseptsiyalash va anglashning yagona, haqiqiy, ishonchli va tabiiy ravishda qabul qilingan narsa sifatida qabul qiladilar. Milliy dunyoqarashning shakllanish jarayonida inson uchun dunyoning lingvistik konseptualizatsiyaning asosiy ahamiyatini ajratib ko'rsatish mumkin.

Shunday qilib, zamonaviy tilshunoslikdagi kognitiv yo'naltirilgan lingvokulturologik yondashuv olamning lisoniy konseptualizatsiyasi voqelikning kognitiv modellashtirishning o'ziga xos tarzda tashkil etilgan jarayoni sifatida tushuniladi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Yusupova, M. (2023). LINGUOCULTURAL PECULIARITIES OF THE CONCEPT "PATRIOTISM". *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(4 Part 2), 116-118.
2. Yusupova, M. (2023). LINGUOCULTURAL PECULIARITIES OF THE CONCEPT "PATRIOTISM". *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(4 Part 2), 116-118.

3. Usmonova, D. S., & Yusupova, M. I. Q. (2021). Comparative analysis of the somatic phraseological units of the english and russian languages with the component “heart”. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 2(11), 94-99.
4. Usmonova, D. S., & Yusupova, M. I. (2020). "Экономика и социум" электронное периодическое издание, ISSN 2225-1545 № 2 (81), 837-841 бетлар.